

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova Shoxsanam G’ayrat qizi - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173
23.	Mamatov Baxadir Safaraliyeviç	Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişning iqtisodiy mexanizmlari va ustuvor yönalişlari	183
24.	Ruziyev Baxtiyor Salimboyeviç	Özbekiston tijorat banklarining moliyaviy holatini topologik ma’lumotlar tahlili usulida baholaş	193
25.	Bo’riboyeva Zamiraxon Ravshan qizi	Yengil sanoat tarmoqlarida investitsiya loyihalarini moliyalaştiriş: muammolari va ularni hal etiş yöllari	202
26.	Арипов Нодир Салимович	Рақамли трансформация минтақа иқтисодиётини барқарор ривожлантириш омили сифатида	213
27.	Маматов Ахметжон Атажанович	Миллий иқтисодиётни тадқиқ этишнинг илмий-назарий асослари ва уни трансформациялаш омиллари	220
28.	Umurzakova Mo‘tabarxon Nodir qizi	Janubiy Koreyada tibbiy sug‘urta tizimini moliyalashtirish mexanizmlari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari	229
29.	Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li	Korporativ tuzilmalar tomonidan xalqaro Yevroobligatsiyalar joylashtirish amaliyotining tahlili	235

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

30.	Dehkanova Nargiza Sharifovna	Kimyo sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni baholash mexanizmlarini shakllantirishning konseptual asoslari	242
31.	Xalilova Shoxsanam G‘ayrat qizi	O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasini budjetdan moliyalashtirish holatining tahlili	249

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM VA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINI BUDJETDAN MOLIYALASHTIRISH HOLATINING TAHLILI

Xalilova Shoxsanam G‘ayrat qizi
“Davlat auditi va budjet hisobi” kafedrasi dotsenti v.b., PhD
e-mail: sh.khalilova@tsue.uz

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini budjetdan moliyalashtirish holati tahlil qilingan. Ta’lim (shu jumladan maktabgacha ta’lim) va sog‘liqni saqlash xarajatlarining o‘sish sur’atlari baholangan, ijtimoiy xarajatlarning pul hajmida oshishi bilan YaIMdagi ulushining o‘zgarishi o‘rtasidagi farq aniqlangan. Bundan tashqari, budjet mablag‘laridan foydalanishdagi mavjud muammolar yoritilib, moliyalashtirish samaradorligini oshirish, nodavlat manbalar ishtirokini kengaytirish va budjet xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so’zlar: *Davlat budjeti, ijtimoiy soha, ta’lim, sog‘liqni saqlash, budjet xarajatlari, YaIM, moliyalashtirish samaradorligi.*

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ БЮДЖЕТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Халилова Шохсанам Гайрат кизи
и.о. доцента кафедры «Государственный аудит и бюджетный учет», кандидат наук.
e-mail: sh.khalilova@tsue.uz

Аннотация. *В статье анализируется состояние бюджетного финансирования образования и здравоохранения в Узбекистане. Оцениваются темпы роста расходов на образование (включая дошкольное образование) и здравоохранение, выявляется разница между ростом социальных расходов в денежном выражении и изменением их доли в ВВП. Кроме того, освещаются существующие проблемы в использовании бюджетных средств и предлагаются меры по повышению эффективности финансирования, расширению участия негосударственных источников и оптимизации бюджетных расходов.*

Ключевые слова: *Государственный бюджет, социальная сфера, образование, здравоохранение, бюджетные расходы, ВВП, эффективность финансирования.*

ANALYSIS OF THE STATE OF BUDGETARY FINANCING FOR THE EDUCATION AND HEALTHCARE SECTORS IN UZBEKISTAN

Khalilova Shokhsanam Gayrat kizi
Acting Associate Professor, PhD, Department of “State Audit and Budget Accounting”
e-mail: sh.khalilova@tsue.uz

Abstract. *The article analyzes the state of budgetary financing for the education and healthcare sectors in Uzbekistan. It evaluates the growth rates of expenditures on education (including preschool education) and healthcare, and identifies the discrepancy between the increase in the absolute monetary value of social spending and the changes in its share of the GDP. Furthermore, the article highlights existing challenges in the utilization of budgetary funds and offers recommendations for enhancing financing efficiency, expanding the role of non-state funding sources, and optimizing budgetary expenditures.*

Keywords: *State budget, social sector, education, healthcare, budget expenditures, GDP,*

financing efficiency.

Kirish

O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarida belgilangan vazifalarni bajarish, aholi talablari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini moliyaviy ta’minlashda budjet mablag‘laridan foydalanish samapadorligini oshipishni talab etmoqda. Bu esa ijtimoiy maqsadga yo‘naltirilgan budjet mablag‘lari bilan ta’lim va tibbiyot sohalarini rivojlantirish, ta’lim va tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi oshirish, uch-etti yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim hamda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshipish uchun ijtimoiy soha tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirishni tadqiq etishning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Mamlakatimizda so’ngi yillarda ijtimoiy sohada tapkibiy va institutsional o’zgapishlarni amalga oshirish, budjet tashkiloti xodimlarining ish haqisini oshirish, g’aznachilik tizimida ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirishni takomillashtirish, ijtimoiy sohani boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini tobora kengroq joriy etishga qaratilgan qator hukumat qarorlarining qabul qilinayotganligi va amaliyotga tatbiq etilayotganligi, ta’lim va sog’liqni saqlash tizimini isloh qilishning asosiy yo’nalishlarini qabul qilish uchun tegishli soha mutaxassislari hamda fuqarolarning fikrlari inobatga olinayotganligi ijtimoiy soha tizimining har doim hukumat va davlat e’tiborida ekanligidan dalolat bepadi.

Xalqaro amaliyot ko’rsatishicha, ijtimoiy sohaning moliyaviy pesurslarga bo’lgan ehtiyojini aniqlash juda murakkab vazifa bo’lib, xanuzgacha mazkur masalaning ilmiy jihatdan maqbul yechimi topilmagan. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy sohani moliyaviy ta’minotini takomillashtipish bo’yicha quyidagi ustuvor yo’nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xususan: ta’lim va sog’liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini qo’llash; ta’lim va sog’liqni saqlash tizimi tashkilotlaridagi bemorlarni ovqatlantirishda autsopsing mexanizmini qo’llash; ijtimoiy sohani moliyalashtirishda endaument fondlaridan foydalanish; sog’liqni saqlash tizimida tibbiy sug’urtasini qo’llash; ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishda “natijaviylikka yo’naltipilgan budjetlashtirish” uslubini qo’llash, ta’lim va tibbiyot tashkilotlarini moliyalashtirishda tashabbusli budjet amaliyotini qo’llash; raqamli iqtisodiyotda ijtimoiy sohaga qarashli budjet tashkilotlaida davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy majmualardan foydalanish masalalari shular jumlasidandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirishning nazariy asoslari xorijiy iqtisodchilar ishlarida shakllangan. Davlat moliyasi nazariyasida R. Masgreyv davlat budjetining taqsimlash, qayta taqsimlash va barqarorlashtirish funksiyalarini asoslagan. P. Samuelson jamoat tovarlari nazariyasini ishlab chiqqan.

Bu nazariya davlatning ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi xizmatlarni moliyalashtirishdagi o‘rnini izohlashda qo‘llaniladi. Ta’lim xarajatlarini investitsiya sifatida ko‘rish inson kapitali nazariyasiga tayanadi. Bu yo‘nalishda T. Shults, G. Bekker, J. Mintser va J. Psaxaropulos ilmiy ish qilgan. Ular ta’limga qilingan xarajatlarning iqtisodiy samarasini, ya’ni ta’limning daromad va iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rgangan. E. Xanushek ta’lim xarajatlari va ta’lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilgan.

O‘zbekistonda davlat budjeti va moliya nazariyasining ilmiy asoslarini shakllantirishga A.V. Vahobov, T.S. Malikov, N.X. Xaydarov, T.Sh. Eshnazarov va boshqa iqtisodchi olimlar hissa qo‘shgan. A.V. Vahobov va T.S. Malikov moliyani taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajaruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilgan. Ularning “Moliya” bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarida davlat budjeti milliy YaIMni qayta taqsimlash va markazlashgan pul fondini

shakllantirish vositasi sifatida ko‘riladi, budjet xarajatlari tasnifida esa ijtimoiy soha (ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, fan, ijtimoiy ta’minot) alohida yo‘nalish sifatida ajratiladi.

T.S. Malikov va N.X. Xaydarov “Davlat budjeti” va “Budjet daromadlari va xarajatlari” asarlarida budjet mablag‘lari manbalari hamda xarajatlarni moliyalashtirish usullarini yoritgan. T.Sh. Eshnazarov budjet munosabatlarini takomillashtirish va budjet xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni masalalarini o‘rgangan. Shuningdek, D.R. Vahobov, G. Qosimova va X.N. Jamolov budjet-soliq siyosati va davlat moliyasini boshqarish bo‘yicha ishlar yaratgan. So‘nggi yillarda mahalliy tadqiqotchilar budjet xarajatlarining samaradorligi, moliyaviy nazorat va ijtimoiy sohani, jumladan sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish dinamikasini o‘rganmoqda.

Tahlil va natijalar

Davlatning o‘z vazifa va funksiyalarini bajarishga, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshrpishga imkon beradigan vositalaridan biri – davlat budjetidir. Ijtimoiy sohaga qarashli tashkilotlarni hozirgi zamon tapaqqiyotining holati, ijtimoiy sohaga moliyaviy pesurslarni jalb etish xususiyatlari, shu sohani moliyalashtipish uslublari va shakllari, ijtimoiy sohadagi tashkilotlarining moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq muammolarni yanada chuqurroq o‘rganish zaruriyati saqlanib qoladi.

Davlat budjetining xarajat qismida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga sarflanadigan xarajatlar ijtimoiy yo‘naltirilgan asosiy xarajatlarligicha qoldi. Ta’lim tizimi O‘zbekiston Pespublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilindi. 2025-2026 yillarda ijtimoiy sohaga yo‘naltipilgan mablag‘lar Davlat budjeti xarajatlari tarkibining 49,0-50,4 foizini tashkil etdi.

Shu xarajatlardan mos ravishda bu ko‘psatkich 21,7-22,6 foizi aynan ta’lim sohasiga yo‘naltirilganligi davlat ta’lim siyosatining o‘ziga xosligidan darak beradi. Ijtimoiy sohaning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini moliyalashtirish asosan davlat va nodavlat moliyaviy manbalar hisobiga amalga oshiriladi. Quyida maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda sog‘liqni saqlash muassasalarini budjetdan moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Ta’lim va sog`liqni saqlash tizimini maliyalashtirishning xususiyatlari[25]

Moliyalashtirish uslubi	Smetali	Normativli	Dasturli	Shartnomali
Moliyalashtirish obьekti va predmeti	Muassasa, muassasa harajatlar	Budjet va uy xo’jalik manblag’lari	Muassasaga ajratmalar	Smeta moddalari bo’yicha xarajatliqat’iy maqsadli amalga oshirish
Moliyalashtirish manbasi	Xizmat, xizmat xarajatlari	Budjet va uy xo’jalik manblag’lari	Muassasaga ajratmalar va subsidiya	Ko’rsatilgan xizmatlarga maqsadli xarajat qilish
Budjet mablag’larini taqdim etish shakli	Maqsad, maqsadli dastur tabriklari	Budjet, tijorat va notijorat tashkilotlar mablag’lari	Budjetdan investitsiyalar,subsidiyalar, davlat xaridlari, ajratmalar	Maqsadli dasturlar asosida rejalashtirilgan natijalarga erishish
Budjet mablag’larini taqdim etish sharti	Xizmat, ta’lim xizmatlarini rivojlantiish xarajatlari	Budjet va uy xo’jalik manblag’lari	Davlat bilan shartnomalar bo’yicha xizmatlarga budjet ajratmalari	Davlat bilan shartnomalar bo’yicha aniqlangan xizmatlarni yetkazib berish

[25] Maullif ishlanmasi

Y.Elistratova “Budjet mablag’laridan foydalanish va taqdim etish jarayonlari budjetdan rejalashtirishda smetali, normativli-kishi boshiga va dasturiy moliyalashtirish usullari mavjudligini ta’kidlab o’tiladi. Budjetdan moliyalashtirish hajmi demografik holatga bog’liqligi va uning natijaga erishilishi bilan baholanishiga e’tibor qaratadi”[26].

Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari ijtimoiy sohaning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, ularni moliyalashtirish asosan davlat va nodavlat moliyaviy manbalar hisobiga amalga oshiriladi. Davlat manbalariga Davlat budjeti, mahalliy budjetlar va maqsadli jamg‘armalar mablag‘lari kiradi. Nodavlat manbalar tarkibida esa aholi va tadbirkorlik subyektlarining to‘lovlari, homiylik hamda xayriya mablag‘lari, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro tashkilotlarning grantlari bor.

Ijtimoiy sohaning budjet xarajatlari yildan yilga oshib bormoqda. 2026 yil Davlat budjetida ijtimoiy soha xarajatlari 220,1 trln so‘m etib belgilangan, shundan ta’limga 100,3 trln so‘m, sog‘liqni saqlashga 48,9 trln so‘m ajratilgan. Bu tizimlarni moliyalashtirishda budjet mablag‘lari hal qiluvchi o‘rin tutadi.

2-jadval

O‘zbekiston Pespublikasi YAIMdagi Davlat budjeti va ijtimoiy soha xarajatlarining ulushining o‘zgarishi (foizda)[27]

Yil	Davlat budjeti xarajatlari, YaIMga nisbatan	Ijtimoiy xarajatlar, jami xarajatlardagi ulushi	Ijtimoiy xarajatlar, YaIMga nisbatan
2022	26,6%	49,7%	13,2%
2023	26,6%	50,4%	13,4%
2024	22,5%	48,2%	12,9%
2025	21,1%	52%	11,0%
2026 (reja)	20,4%	55%	11,0%

Jadval ma`lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2026 uchun YaIM yalpi taqchillikdan (60,2 trln so‘m yoki YaIMning 3%) taxminan 2 007 trln so‘m deb olindi. Budjet xarajatlarining YaIMdagi ulushi 2022–2023 yillardagi 26–27% dan 2025 yilga kelib 21% gacha kamaygan. Ijtimoiy xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi barqaror (50–52%), ammo YaIMga nisbatan ulushi 13% dan 11% ga tushgan. Bu YaIM xarajatlarga qaraganda tezroq o‘sganini bildiradi.

3-jadval

Ta’lim uchun davlat xarajatlari, 2022–2026-y.(mlrd so’m)[9]

Ko’rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2026
Jami	2,770.39	55,959.16	67,989.00	72,066.00	82,129.74
Joriy xarajatlar	47,735.10	52,289.16	63,600.00	66,800.00	75,811.50
Shu jumladan, ish haqi	37,364.84	42,003.99	46,204.39	50,824.83	55,907.32
Boshqa joriy xarajatlar	10,370.26	10,285.17	17,395.61	15,975.17	19,904.19
Kapital xarajatlar	5,035.29	3,670.00	4,389.00	5,266.00	6,318.24
Davlat xarajatlarining % ulushi, jumladan qarzga xizmat qo’rsatish	22.3%	24.6%	26,6%	25.2%	24.7%
YaIM ga nisbatan	5.9%	5.3%	5.5%	5.1%	5.2%

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 2022-yilda O’zbekiston Respublikasida ta’lim uchun davlat xarajatlari YaIMning 5,9 foizini yoki umumiy budjetning 22,3 foizini tashkil yetdi.

[26] Елистратова Е.Ю. Повышение эффективности расходов бюджетов на общее образование: автореферат ... к.э.н. – М.: Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, 2016. – 25 с.
[27]Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари асосида тузилган.

2026-yilda umumiy ta’lim xarajatlari 82,1 trln so’mga yetadi (davlat budjetining 24,7 foizi va YaIMning 5,2 foizi). Ta’lim sektorining joriy xarajatlari 2024-yilda 63,6 trln so’mni va 2025-yilda 75,8 trln so’mni tashkil yetsa-da, maktabgacha va maktab ta’limida kutilayotgan qamrov darajasini ta’minlash uchun kapital xarajatlar 2026-yilga borib 6,3 trln so’mga yetishi kutilmoqda.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, aholi turmush dapajasini oshirishning hal qiluvchi omili sifatli ta’lim va tibbiy xizmat bilan ta’minlash hisoblanadi. Aholining yuqori turmush darajasi – shaxsning moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanganligi, insonning bilimi, salomatligi, shaxsiy ehtiyojlarini ta’minlash imkoniyatini yaratilishidir. Ijtimoiy sohaga qarashli ta’lim va sog‘liqni saqlash tashkiloti xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy maqsadi – aholi farovonligini nafaqat bugun, balki, istiqbolda ham to‘liq ta’minlashdir.

Budjet tashkilotlari tomonidan xarajatlar smetasida nazarda tutilmagan hamda maqsadsiz mablag‘lar sarfining amalga oshirilishi, brudjet tashkilotlarining extiyojlari uchun xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)ning narxini belgilashda korrupsiyaning kuchayishi, davlat budjetida rejalashtirilgan daromadlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushumini ta’minlanmasligi oqibatida kassa uzilishlarining vujudga kelish muammosini hal etish maqsadida g‘aznachilik tizimida kassali rejalashtirish taptibini takomillashtirishni maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratov S.N. “Davlat xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta`lim muassasalarini mablag` bilan ta`minlash”. Current issues of bio economics and digitalization in the sustainable development of regions. 28 April, 2022 Samarkand branch of Tashkent state university of economics. www.sbtsue.uz 395 bet.

2. М.А.Пахомов, Е.С.Пахомова. Государственно-частное партнерство в сфере дошкольного образования. Социально-экономические явления и процессы. № 11 (033), 2011

3. Т.Н. Богуславская. Частно - государственное партнерство в повышении доступности качественного дошкольного образования. "Управление образованием: теория и практика" № 4, 2014.

4. Белицкая А.В. Правовые формы государственно–частного партнерства в России и зарубежных странах // Предпринимательское право. – 2009. – N2. – С. 21–27.

5. Yakubova S.S. O`zbekistonda davlat hususiy sheriklik asosida maktabgacha ta`lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-T.: TMI, 2023-y;

6. Abdullaev A.F. Методологические аспекты финансирования дошкольных образовательных учреждений//Moliya va bank ishi electron ilmiy jurnali.– T.:, БФА, 2019. -№2. – С. 27-36.

7. Новак Е. В. Интеграция сметного ценообразования и бюджетирования в строительстве: автореферат ... к.э.н. – М.: Российский университет кооперации, 2011. – 25 с.

8. Елистратова Е.Ю. Повышение эффективности расходов бюджетов на общее образование: автореферат ... к.э.н. – М.: Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, 2016. – 25 с.

9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sektorida islohotlarni amalga oshirishda sheriklik to‘g‘risidagi bitim. Toshkent, O‘zbekiston 2023-yil, mart. https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/media/5671/file